



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TOHIR MALIKNING “SAODAT SAROYINING KALITI” VA “KO’NGIL NIMADAN QORAYADI” ASARLARIDA QO’LLANGAN KIRISH SO’ZLAR TAHLILI

Qodirova Mohinur Saydullo qizi
Qo‘qon davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tohir Malik asarlarida qo‘llangan kirish so‘zlar ma‘no jihatdan kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, ularning nutqdagi funksional-semantik xususiyatlari ochib berilib, har bir ma‘no turiga mansub kirish so‘zlar aniqlanadi va o‘zaro qiyosiy jihatdan farqlanadi. Shu asosda kirish so‘zlarning tasnifi amalga oshirilib, ularning badiiy matndagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, ishonch, gumon, ta’kid, qarama-qarshilik, manba ko‘rsatish, eslatish, xulosa, Tohir Malik.

АНАЛИЗ ВВОДНЫХ СЛОВ, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТОХИРА МАЛИКА «SAODAT SAROYINING KALITI» И «KO’NGIL NIMADAN QORAYADI»

Кодирова Мохинур Сайдулло кизи
Кокандский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье проводится комплексный семантический анализ вводных слов, используемых в произведениях Тохира Малика. В частности, раскрываются их функционально-семантические особенности в речи, определяется принадлежность вводных единиц к различным смысловым типам и осуществляется их сопоставительное разграничение. На этой основе проводится классификация вводных слов, а также освещается их роль и значимость в художественном тексте.

Ключевые слова: художественный текст, уверенность, предположение, акцентирование, противопоставление, указание на источник, напоминание, вывод, Томир Малик.

AN ANALYSIS OF INTRODUCTORY WORDS IN TOHIR MALIK’S WORKS “SAODAT SAROYINING KALITI” AND “KO’NGIL NIMADAN QORAYADI”

Qodirova Mohinur Saydullo qizi
Kokand State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article provides a comprehensive semantic analysis of introductory words employed in the works of Tohir Malik. In particular, it elucidates their functional-semantic properties in discourse, identifies their affiliation with specific semantic categories, and carries out a comparative differentiation of these units. On this basis, a classification of introductory words is developed, and their role and significance in literary texts are thoroughly examined.

Keywords: literary text, certainty, assumption, emphasis, contrast, source attribution, reminder, conclusion, Tohir Malik.

Kirish so‘zlar va kiritmalar badiiy matnning ta’sirchanligi, badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytiradigan birliklari qatoridagi eng muhim vositalardan hisoblanadi. Kirish so‘zlar va

kiritmalarning barchasi “soʻzlovchining oʻz fikriga munosabatini bildirish” umumiy maʼnosi ostida birlashadi va gapdagi oʻrni qatʼiy emas. Ular, xususan, kirish soʻzlar gapning boshida, oʻrtasida va oxirida kelishi mumkin. Shuning uchun ular gap boʻlaklaridan, gapdagi boshqa elementlardan pauza orqali ajralib turadi. Umuman, parantezalar turli tilshunosliklarda muntazam va juda keng bir aspektda oʻrganib kelingan va hozirgi kunda ham oʻrganilmoqda.

Kirish soʻzlar gap mazmuniga soʻzlovchining munosabatini bildirib keladi. Grammatik jihatdan kirish soʻzlar gap boʻlagi hisoblanmaydi. Kirish soʻzlarni maʼnosiga koʻra quyidagi asosiy boʻlimlarga ajratishimiz mumkin:

- Ishonch va qatʼiylik - soʻzlovchining bayon etilayotgan fikrga boʻlgan mustahkam ishonchi, uning haqiqat sifatida qabul qilinishini va qatʼiy tasdiqlanishini ifodalovchi kirish soʻzlar. Bunday birliklar nutqda aniqlik va ishonchlilikni kuchaytiradi.

- Gumon va taxmin - fikrning toʻliq aniqlanmaganligi, ehtimollik darajasi yoki taxminiy xususiyatini koʻrsatadigan kirish soʻzlar boʻlib, ular orqali soʻzlovchi oʻz mulohazasining nisbiy ekanini bildiradi.

- Manba koʻrsatish - maʼlumotning kelib chiqish manbaini, yaʼni uning kim tomonidan aytilgani yoki qayerdan olinganini ifodalovchi kirish birliklari. Bu tur ilmiy va publitsistik matnlarda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

- Tartib va ketma-ketlik - bayon etilayotgan fikrlarning izchilligini taʼminlaydigan, ularni maʼlum tartib asosida joylashtiruvchi kirish soʻzlar. Ular matnning mantiqiy tuzilishini shakllantirishga xizmat qiladi.

- Xulosa va umumlashtirish - ilgari bayon qilingan fikrlar asosida yakuniy natija chiqarish yoki umumiy xulosani ifodalovchi kirish birliklari boʻlib, ular matnning yakuniy mantiqiy tugallanganligini taʼminlaydi.

- His-hayajon - soʻzlovchining emotsional holati, subyektiv munosabati yoki ichki kechinmalarini ifodalovchi kirish soʻzlar. Ular nutqqa obrazlilik va taʼsirchanlik bagʻishlaydi.

- Taʼkid (ajratish) - muayyan fikr yoki uning bir qismini alohida ajratib koʻrsatish, unga urgʻu berish va ahamiyatini kuchaytirish uchun xizmat qiluvchi kirish birliklari.

- Misol keltirish - bayon etilgan fikrni dalillash, izohlash yoki aniqroq ochib berish maqsadida misollar kiritilayotganini bildiruvchi kirish soʻzlar.

- Qarama-qarshilik (ziddlik) - oldingi fikrga zid yoki unga qarama-qarshi mazmunni ifodalovchi kirish birliklari boʻlib, ular orqali nutqda kontrast va muqoyasa yuzaga keladi.

- Eslatish - avval aytilgan fikrni qayta yodga solish, unga murojaat qilish yoki uni mustahkamlash maqsadida qoʻllanadigan kirish soʻzlar.

- Eʼtibor qaratish - tinglovchi yoki oʻquvchining diqqatini muayyan nuqtaga jalb qilish, muhim jihatni alohida koʻrsatish vazifasini bajaruvchi kirish birliklari.

- Fikrni aniqlashtirish - bayon etilgan fikrni izohlash, unga aniqlik kiritish yoki tushunarliroq shaklda ifodalashga xizmat qiluvchi kirish soʻzlar.

- Shart yoki cheklash - fikrning amalga oshish sharti, chegarasi yoki muayyan holatlarga bogʻliqligini bildiruvchi kirish birliklari boʻlib, ular nutqning aniqligi va mantiqiyligini taʼminlaydi.

Tohir Malikning “Saodat saroyining kaliti” va “Koʻngil nimadan qorayadi” asarlarida qoʻllangan kirish soʻzlarni ushbu maʼno turlariga koʻra tahlil qilamiz:

Ishonch va qatʼiylik maʼnosini bildirgan kirish soʻzlar qoʻllangan gaplar:

1) Albatta, ota-onangiz ular bilan muomala qilishingizga norozi boʻladi.

2) Kimningki basirati oʻtkir boʻlsa, unga oʻz nafsining qusur va ayblari oʻziga, albatta, koʻrinajak.

3) Toʻgʻri, ular sichqon kabi toʻr arqonlarini qirqib, doʻstlarini tutqunlikdan qutqara olmaydilar.

4) Baribir, bu oltinlarni sendan talab qiluvchi biror muayyan kishi yoʻq-ku?

- 5) Darhaqiqat, barchamiz Alloh Taoloning qulimizku.
2. Gumon va taxmin ma'nosini bildirgan kirish so'zlar qo'llangan gaplar:
 - 1) Ehtimol, o'zimiz yomondirmiz, ehtimol, do'stlik burchi nima ekanini yaxshi anglamagandirmiz, ehtimol, yaxshi do'st tarbiyasini chetlab ulg'aygandirmiz.
 - 2) Zaruriyat o'rtadan ko'tarilishi zamon do'stlik adovatga aylanishi, ehtimol.
3. Manba ko'rsatish ma'nosini bildirgan kirish so'zlar qo'llangan gaplar:
 - 1) Bizningcha, ortiqcha bahsga o'rin yo'q.
 - 2) Bilishimcha, ko'p oilalarda aytilmaydi. Siznikida ham shunday bo'lsa kerak.
 - 3) Bizningcha, vijdonga suyanmagan do'stlikda yaxshilik yo'qdir.
 - 4) Aytishlaricha, xunuk ishlarga buyuruvchi Sultonning tashqi ko'rinishi ham xunuk ekan.
- 5) G'azzoliy xazratlarining fikricha, tabiiy odat hamda o'rganish kabi jihatlarga ko'ra farqlanadi.
- 6) Sahobalardan birining aytishicha, iymon qalbda oq nuqta bo'lib ko'rinadi.
4. Tartib va ketma-ketlik ma'nosini bildirgan kirish so'zlar qo'llangan gaplar:
 - 1) Avvalo, ota-onasini xo'rlagan odamni jamiyat izzat qilmaydi.
 - 2) Diqqat qiling, avvalo, nasihatning ta'siri nasihatgo'yning aqliga, bilimiga bog'liq.
 - 3) Birinchidan, ota-onaga yomon so'z aytib, behurmat qilmaslik.
 - 4) Ikkinchidan, o'qishdan yoki ishdan charchab qaytdingiz, yoki ko'nglingiz bir nimadan g'ash.
- 5) Yo'lbars o'ljasini poylaydi, quvlaydi, bo'g'zidan oladi, nihoyat, qornini yorib to'ygunicha yeydi.
5. Xulosa va umumlashtirish ma'nosini bildirgan kirish so'zlar qo'llangan gaplar:
 - 1) Xullas, tanishining akasi aqiqa dasturxoniga olinajak ne'matlarni ro'yxatini qilib berdi.
 - 2) Uning oilasi-xullas, yomon.
 - 3) Asar qahramoni hatto o'zining o'limiga ham befarq, sevgisi ham uning qalbini yumshata olmaydi, xullas, u har qanday mehr-muruvvatdan begona, ruhsiz bir tana.
 - 4) Demak, mazkur holatda bu ikki oilaning bir-biriga dushmanlik bobida haddan oshganliklarini tushunish mumkin.
 - 5) Boshqacharoq ayt sak, yaxshi odamni o'limidan keyin ham uzoq yillar eslab yuradilar, demak, u tiriklar qalbidan yashayveradilar.
 - 6) Binobarin, do'st bo'lishimiz ham mumkin emas.
 - 7) Modomiki, inson taqdiri, hali tug'ilmasidan ilgariq belgilab qo'yilgan ekan, yomonning yaxshi bo'lishiga harakat qilmog'i bexuda ekan-da?
 - 8) Alhol, ilm olish ham tarbiyaning muhim asosidir.
6. His-hayajon ma'nosini bildirgan kirish so'zlar qo'llangan gaplar:
 - 1) Afsuski, oramizda bu yo'lni ko'rmaydiganlar yoki mensimaydiganlar ham topiladi.
 - 2) Ammo, afsuski, ayrim hollarda nafrat ham uchraydi.
 - 3) Attang, deyishadi-yu foyda bermaydi.
 - 4) Ajabki, rostgo'y kishining gaplari hukmdorga ta'sir qilibdi.
7. Ta'kid (ajratish) ma'nosini bildirgan kirish so'zlar qo'llangan gaplar:
 - 1) Ayniqsa, hozirgi kunlarda hamma narsa ilm-fan taraqqiyoti mezoni bilan o'lchanib ma'naviy olamdan uzoqlashayotgan asrda qiyin, g'oyatda qiyin.
 - 2) Ayniqsa, oilaning to'ng'ich farzandiga "Sen kattasan, ukalaringni boshlarini qovushtirib tur" deb so'nggi o'tinch bilan tikilishlarini ko'z oldimizga keltiraylik.
 - 3) O'zining aybini yashirish uchun musulmonchilikni niqob qilishi, ayniqsa, ajablanarli edi.
 - 4) Har birimiz o'z-o'zimizni, xususan, ko'nglimizni idora qila bilmog'imiz shart.
 - 5) Zero, solih amallarning ajri ham qalbgaga bog'liqdir.

- 6) Zotan, bu mantiqiy olishuvlarga nima hojat bor?
 - 7) Qadim adabiyotdagi soʻfiy shoirlar ishq atamasini, asosan, Allohga boʻlgan muhabbat maʼnosida ishlatishgani bejiz emas.
 8. Misol keltirish maʼnosini bildirgan kirish soʻzlar qoʻllangan gaplar:
 - 1) Masalan, ota-onangiz bir vazifa buyurishsa, siz bu ishni toʻgʻri hisoblamay biror bahona bilan bajarmasangiz yoki ochiqchasiga rad etishingiz mumkin.
 - 2) Ogʻzaki nasihatlarini eshitamiz, kitoblarda oʻqiyamiz, masalan, quyidagi hikmat kabi.
 - 3) Aytaylik, kechki ovqat paytida kunduzgi voqealardan gap ochildi.
 - 4) Yanikim, kishi har daqiqa, har soat, har kun bu sohada oʻzini tarbiya qilib bormogʻi talab etiladi.
 - 5) Deylik, bir kun tarbiya etilmaydimi, yaxshi fazilatni bir kun unutdimi – izdan chiqib ketishi hech gap emas.
 - 6) Mening bu ahvolimni hech kim, jumladan, oʻsha doʻstim ham bilmasdi.
 - 7) Buzuq axloqning barcha koʻrinishlari, xususan, firibgarlik, yovuzlik, yomonlik doirasining tobelaridir.
 9. Qarama-qarshilik (ziddlik) maʼnosini bildirgan kirish soʻzlar qoʻllangan gaplar:
 - 1) Bu maʼnoda shirk koʻrinmasligi, aksincha, tarbiyachi Tangriga itoat etganing kabi ota-onangga ham itoatda turgin dermish maʼnoni uqmoq joiz.
 - 2) Biroq, “Mendan keyin axl-inoq yashanglar” deyishlari aniq.
 - 3) Holbuki, biron kishi qarindoshingizni yomonlasa siz unga qoʻshilib yomonlashmang.
 - 4) Biz doʻstni nodon deymiz, holbuki, soʻrab-surishtirmay har qanday odam bilan doʻstlashib unga koʻnglidagi borini ochib tashlaydigan odamning oʻzi nodon emasmi?
 10. Eslatish maʼnosini bildirgan kirish soʻzlar qoʻllangan gaplar:
 - 1) Darvoqe, darvozalarning yaqin yoki uzoqligiga qarab nechta qoʻshni sanaladi.
- Ushbu tahlillardan shuni tushunishimiz mumkinki, Tohir Malik oʻz asarlarini badiiy-estetik qiymatini oshirish uchun harakat qilgan hamda kitobxonning asarni oʻqish davomida hayajon va taʼsir imkoniatini kengaytirganini bilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abdurahmonov Gʻ. *Oʻzbek tili grammatikasi*. – Toshkent: Fan, 1996. – 278–283-betlar.
2. Mahmudov N. *Til va nutq*. – Toshkent: Fan, 2011. – 198–203-betlar.
3. Malik T. *Koʻngil nimadan qorayadi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 10–95-betlar.
4. Malik T. *Saodat saroyining kaliti*. – Toshkent: Sharq, 2005. – 15–120-betlar.
5. Nurmonov A. *Hozirgi oʻzbek adabiy tili*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2012. – 245–252-betlar.
6. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi oʻzbek adabiy tili (sintaksis)*. – Toshkent: Universitet, 2006. – 312–318-betlar.
7. Shomaqsudov A., Rasulov I. *Oʻzbek tili stilistikasi*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1990. – 156–162-betlar.